



**QASHQADARYO VILOYATI  
QAMASHI TUMANI HOKIMINING  
QARORI**

180500, Qamashi shahri, Amir Temur ko‘chasi, 1-uy. Tel: (375) 53-24-490, t.qamashi@exat.uz

2023 - yil 1 - iyun

159-4-58-Q/23

Qamashi tuman hokimligi

**Davlat o‘rmon fondi yerlarida yong‘in xavfini oldini olish chora–  
tadbirlari to‘g‘risida**

2023- yil Davlat o‘rmon fondi yerlarida yong‘in kelib chiqishining hamda tabiatga va o‘simlik dunyosiga zarar yetkazilishining oldini olish maqsadida, Qamashi davlat o‘rmon xo‘jaligining 2023- yil 18-maydagи 1-1/522-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “O‘rmon to‘g‘risida”gi Qonuni, (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999 yil 5-son, 122-modda) va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997- yil 22-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida o‘rmonlarni himoya qilish bo‘yicha ayrim me’yoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 506-sonli qarori (O‘zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari to‘plami, 1999- yil 11-son 68-modda) ga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuning 25-, 6-moddalariga asosan

**QAROR QILAMAN:**

1. 2023- yil yoz, kuz mavsumlarida Davlat o‘rmon fondi yerlarida va qo‘sni fermer va shirkat xo‘jaliklari hamda fuqarolar yig‘inlari hududida joylashgan o‘rmonlarda tamaki mahsulotlari chekish, ov qilish hamda gulxan yoqish qat’iyan man qilinsin.
2. Qamashi davlat o‘rmon xo‘jaligi o‘rmonchilik bo‘limlarida yong‘inga qarshi kurash tadbirlari 1-ilovaga, favqulotda holatlarda yong‘inni o‘chirish rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Qamashi davlat o‘rmon xo‘jaligi (I.Majidov), Chimqo‘rg‘on, Markaziy ko‘chatchilik, Igrisuv-1, Igrisuv-2 o‘rmon bo‘limlari, Terakchilik o‘rmon uchastkasi va Qiziltom o‘rmon bo‘limi o‘rmonchisi (J.Norchayev, Sh.Allayorov, R.Rajabov,

A.Jo‘lliyev, Q.Ochilov, Sh.G‘ulomov) “Azlartepa” MFY (F.Ostonov), “Qoratepa” MFY (S.Xoliqov), “Qarabog” MFY (B.Egamberdiyev), “Quyi Yangi” MFY (B.Ortiqov), “Loyqasoy” MFY (SH.Esanov), “Oqguzar” MFY (G‘.Bakiyev), “Qiziltepa” MFY (S.Ko‘charov), “Boburtepa” MFY (Y.Hakimov), “Changak” MFY (O‘.Abrayev), “Qizilqishloq” MFY (Y.Jabbarov), “Chuqurqishloq” MFY (M.Oynazarov), “O‘rtadara” MFY (Z.Umarov), “Katta O‘ra” MFY (F.Tursunov), “Bog‘obod” MFY (X.Karimov), “Oybek” MFY (X.G‘afurov), “Oqqishloq” MFY (Q.Xudoyqulov), “Guliston” MFY (A.Boboyev) raislari yong‘in xavfni oldini olishning barcha tadbirlarini o‘tkazish bo‘yicha ma’sulligi belgilab qo‘yilsin.

4. Qamashi davlat o‘rmon xo‘jaligi (I.Majidov), Qamashi tumanfovqulodda vaziyatlar bo‘limi (SH.Diyorov), tuman tibbiyat birlashmasi (U.Boysunov), “O‘ztelekom” AK Qamashi tuman filiali (A.Berdimurodov), Chimqo‘rg‘on, Markaziy ko‘chatchilik, Igrisuv-1, Igrisuv-2 o‘rmon bo‘limlari, Terakchilik o‘rmon uchastkasi o‘rmonchisi (J.Norchayev, Sh.Allayorov, R.Rajabov, A.Jo‘lliyev, Q.Ochilov, Sh.G‘ulomov) “Azlartepa” MFY (F.Ostonov), “Qoratepa” MFY (S.Xoliqov), “Qarabog” MFY (B.Egamberdiyev), “Quyi Yangi” MFY (B.Ortiqov), “Loyqasoy” MFY (SH.Esanov), “Oqguzar” MFY (G‘.Bakiyev), “Qiziltepa” MFY (S.Ko‘charov), “Boburtepa” MFY (Y.Hakimov), “Changak” MFY (O‘.Abrayev), “Qizilqishloq” MFY (Y.Jabbarov), “Chuqurqishloq” MFY (M.Oynazarov), “O‘rtadara” MFY (Z.Umarov), “Katta O‘ra” MFY (F.Tursunov), “Bog‘obod” MFY (X.Karimov), “Oybek” MFY (X.G‘afurov), “Oqqishloq” MFY (Q.Xudoyqulov), “Guliston” MFY (A.Boboyev) raislari birgalikda Davlat o‘rmon fondi yerlarida yong‘in sodir bo‘lganda tezda kechiktirmasdan yong‘inni o‘chirish uchun yetarli odamlarni jalb qilish va ularni asbob-uskuna va oziq-ovqatlar bilan ta’minalash hamda tez tibbiy yordam ko‘rsatish choralarini ko‘rish vazifalari yuklatilsin.

5. Qamashi davlat o‘rmon xo‘jaligi (I.Majidov), Qamashi tumanfovqulodda vaziyatlar bo‘limi (SH.Diyorov), tuman tibbiyat birlashmasi (U.Boysunov), “O‘ztelekom” AK Qamashi tuman filiali (A.Berdimurodov), Chimqo‘rg‘on, Markaziy ko‘chatchilik, Igrisuv-1, Igrisuv-2 o‘rmon bo‘limlari, Terakchilik o‘rmon uchastkasi o‘rmonchisi (J.Norchayev, Sh.Allayorov, R.Rajabov, A.Jo‘lliyev, Q.Ochilov, Sh.G‘ulomov) “Azlartepa” MFY (F.Ostonov), “Qoratepa” MFY (S.Xoliqov), “Qarabog” MFY (B.Egamberdiyev), “Quyi Yangi” MFY (B.Ortiqov), “Loyqasoy” MFY (SH.Esanov), “Oqguzar” MFY (G‘.Bakiyev), “Qiziltepa” MFY (S.Ko‘charov), “Boburtepa” MFY (Y.Hakimov), “Changak” MFY (O‘.Abrayev), “Qizilqishloq” MFY (Y.Jabbarov), “Chuqurqishloq” MFY (M.Oynazarov), “O‘rtadara” MFY (Z.Umarov), “Katta O‘ra” MFY (F.Tursunov), “Bog‘obod” MFY (X.Karimov), “Oybek” MFY (X.G‘afurov), “Oqqishloq” MFY (Q.Xudoyqulov), “Guliston” MFY (A.Boboyev) raislari o‘rmon xo‘jaligi yer fondiga yaqin aholiga Davlat o‘rmon fondi yerlarida yong‘inni oldini olish bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish hamda “O‘rmon to‘g‘risida”gi va “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonunlarni buzgan shaxsga nisbatan tegishli hujjatlarni

rasmiylashtirib tegishli organlarga taqdim etish vazifalari topshirilsin.

6. Mazkur qaror qabul qilishni munosabati bilan Qamashi tumani hokimining 2022-yil 7-iyundagi 310-4-58-Q/21-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Ushbu qaror ijrosini nazorot qilish tuman hokimining o‘rinbosari Q.Haydarov zimmasiga yuklatisin.

8. Qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**Tuman hokimi**



**B.Tog‘ayev**